



The potential of pedagogy in the modern education system

Mekhriniso ATOEVA¹, Gulnora GAYBULOVA²

Bukhara Medical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 May 2025

Available online

15 June 2025

Keywords:

pedagogical potential,
pedagogical mastery,
professional development,
innovative approach,
modern education,
digital literacy,
education quality,
reflection,
professional competence.

ABSTRACT

This article analyzes the role of teachers' pedagogical potential in the modern education system, its components, and ways of development. The teacher's pedagogical potential includes not only professional knowledge and skills but also methodological expertise, communicative competencies, psychological-pedagogical training, innovative openness, and digital literacy. The author highlights key directions for developing this potential such as professional development, practical experience exchange, scientific research activities, the use of digital technologies, and self-assessment. The article substantiates the importance of enhancing teachers' pedagogical potential to improve education quality and provides practical recommendations.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp144-149>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogikaning o'qituvchi salohiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'qituvchi salohiyati,
pedagogik mahorat,
kasbiy rivojlanish,
innovatsion yondashuv,
zamonaviy ta'lim,
raqamli savodxonlik,
ta'lim sifati,
refleksiya,
kasbiy kompetensiya.

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi salohiyatining o'rni, uning tarkibiy qismlari va rivojlantirish yo'llari tahlil etilgan. O'qituvchi salohiyati nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki metodik mahorat, kommunikativ kompetensiyalar, psixologik-pedagogik tayyorgarlik, innovatsion ochiqlik hamda raqamli savodxonlikni ham o'z ichiga oladi. Muallif pedagogik salohiyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida malaka oshirish, amaliy tajriba almashinuvi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish va o'zini o'zi baholashni ko'rsatadi. Maqola ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining salohiyatini kuchaytirish dolzarbligini asoslaydi va amaliy tavsiyalar beradi.

¹ PhD, Associate professor, Bukhara State University.

² Senior Lecturer, Department of Biophysics and Information Technologies, Bukhara Medical Institute.

Обучающий потенциал педагогики в современной образовательной системе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

педагогический потенциал, педагогическое мастерство, профессиональное развитие, инновационный подход, современное образование, цифровая грамотность, качество образования, рефлексия, профессиональная компетенция.

В данной статье анализируется роль педагогического потенциала учителя в современном образовательном процессе, его составные части и пути развития. Педагогический потенциал учителя включает не только профессиональные знания и умения, но также методическое мастерство, коммуникативные компетенции, психологопедагогическую подготовку, инновационную открытость и цифровую грамотность. Автор выделяет основные направления развития потенциала – повышение квалификации, обмен практическим опытом, научно-исследовательская деятельность, использование цифровых технологий и самооценка. В статье обосновывается актуальность повышения педагогического потенциала учителей для повышения качества образования и даются практические рекомендации.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi XXI asrda global raqobat, texnologik taraqqiyot va jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirish maqsadida chuqur islohotlar jarayonida rivojlanmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida sifat va samaradorlikni oshirish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, inson omili, xususan, o'qituvchi shaxsiyati va uning kasbiy salohiyati ushbu jarayonlarning markazida turibdi. Zero, hech bir ta'lim strategiyasi o'z ishining ustasi bo'lgan, zamon bilan hamnafas pedagogsiz amaliy natijaga erisha olmaydi.

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivoji, mehnat bozoridagi yangi kompetensiyalar talabi, o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvlar o'qituvchi faoliyatiga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etmoqda. O'qituvchi endilikda shunchaki ma'lumot beruvchi emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, tanqidiy yondashuvni shakllantiruvchi, ilmiy izlanishga undovchi, jamiyatga foydali va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni voyaga etkazuvchi yo'lboshchi vazifasini bajaradi.

Shu boisdan ham, pedagogikaning eng dolzarb mavzularidan biri – o'qituvchi salohiyati va uni rivojlantirish masalasidir. Bu tushuncha keng va ko'p qirrali bo'lib, nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki metodik mahorat, kommunikativ kompetensiya, axloqiy fazilatlar, pedagogik refleksiya, shaxsiy intilishlar va innovatsion g'oyalarga ochiqlikni ham qamrab oladi. Ayniqsa, bugungi kunda ta'limda raqamli savodxonlik, madaniy moslashuvchanlik, psixologik barqarorlik va liderlik kabi sifatlar o'qituvchining salohiyati doirasiga kirib bormoqda.

Zamonaviy pedagogika o'qituvchining salohiyatini o'lchash va rivojlantirishga oid turli konsepsiyalarni taklif qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z ustida ishlashi, doimiy o'zini rivojlantirishi, xalqaro tajribalarni o'rganishi va innovatsion faoliyatga jalb qilinishi zarurligini anglatadi. Ta'lim sifati, avvalo, o'qituvchining

professional salohiyatiga bog'liq ekani hech kimga sir emas. Shu sababli ham davlat siyosatida, ta'lim strategiyalarida va ilmiy-tadqiqotlarda o'qituvchi salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi salohiyatining pedagogik mohiyati, uning tarkibiy qismlari, rivojlantirish yo'nalishlari va amaliyotdagi dolzarb masalalari yoritib beriladi. Shuningdek, salohiyatni baholash usullari, zamonaviy kompetensiyalar talabi va o'qituvchining o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitlarda tutgan o'rni ilmiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Pedagogik adabiyotlarda "o'qituvchi salohiyati" tushunchasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Bu atama o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, didaktik va metodik bilim darajasi, shuningdek, shaxsiy fazilatlar, pedagogik etukligi va innovatsion fikrlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Salohiyat bu – o'qituvchining mavjud bilim va ko'nikmalari asosida zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga mos ravishda o'z kasbiy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish, takomillashtirish va yangiliklarga ochiq bo'lish salohiyatidir. O'qituvchi salohiyatini kengroq tahlil qilganda, u quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi aniqlanadi:

Bu komponent o'qituvchining o'z fan sohasi bo'yicha chuqur va tizimli bilimga ega bo'lishini, shuningdek, didaktik asoslarda dars mazmunini to'g'ri tuzish, ilmiylik va amaliyot o'rtasida bog'liqlik yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Kasbiy bilimlar nafaqat nazariyaga asoslanadi, balki ularni amaliyotga tatbiq eta olish salohiyatini ham talab qiladi. Bunga dars jarayonida ilg'or metodlarni qo'llash, o'quvchilarning savollariga asosli javob berish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish kiradi.

O'qituvchining metodik tayyorgarligi – bu darsni samarali rejalashtirish, darsning maqsad va vazifalariga mos metodlarni tanlash, interfaol va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, baholash va tahlil qilish mexanizmlarini bilishdan iborat. Metodik mahorat, ayni paytda, dars jarayonini moslashuvchan tashkil etish, har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olish va o'qitish usullarini doimiy yangilab borish salohiyatini ham qamrab oladi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga, jamoada ishlashga, ota-onalar, hamkasblar, maktab rahbariyati va keng jamoatchilik bilan ochiq, konstruktiv aloqa qilishga qodir bo'lishi lozim. Kommunikativ kompetensiya shuningdek, til madaniyati, mimika, tana tili, tinglash madaniyati kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Bu komponent o'quvchilarning psixologik holatini anglab etish va zarur bo'lganda motivatsiya yaratish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir yoshdagi o'quvchining rivojlanish psixologiyasini bilish, shaxsiy xususiyatlarini tushunish, individual yondashuv asosida ta'lim berish – o'qituvchi faoliyatining eng muhim jihatlaridan biridir. Psixologik-pedagogik tayyorgarlik shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelining negizini tashkil etadi. Bu orqali o'quvchining intellektual, ijtimoiy, emotsional va axloqiy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratiladi.

o'z faoliyatini doimiy tahlil qilib boradigan, yangiliklarni o'zlashtirishga tayyor, raqamli va pedagogik texnologiyalarni tezda o'zlashtira oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bu salohiyat reflektiv yondashuvga asoslanadi – ya'ni o'qituvchi o'z darslarini, metodlarini, o'quvchilarning natijalarini tahlil qiladi va xatolardan xulosa chiqarib, jarayonni takomillashtiradi. Innovatsion ochiqlik, ayniqsa, bugungi kunda tez o'zgaruvchan axborot muhitida pedagogdan moslashuvchanlikni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi salohiyati – bu faqat bilimlar to'plami emas, balki o'quv jarayonida yuzaga keladigan har qanday vaziyatda to'g'ri pedagogik echim qabul qilishga imkon beruvchi kompleks kasbiy kompetensiyalar majmuidir. Ushbu salohiyat darajasi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va uning uzluksiz rivoji butun ta'lim tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Yangi avlod ta'lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM integratsiyasi, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan o'quv jarayoni o'qituvchidan yangicha dunyoqarash, yangilikka ochiqlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. O'qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki mentor, fasilitator va koordinator roliga namoyon bo'lishi kerak.

Zamonaviy darsni tashkil etishda o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Fanlararo aloqalarni yo'lga qo'yadi.
- O'quvchilarda muammoli fikrlashni rivojlantiradi.
- Raqamli vositalardan foydalangan holda interaktiv darslar o'tkazadi.
- O'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi.

Shunday qilib, pedagogik salohiyat ta'lim sifatining hal qiluvchi omili sifatida qaralmoqda. Boshqacha aytganda, ta'lim islohoti, innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalarning muvaffaqiyati – o'qituvchi salohiyatiga bevosita bog'liq.

Zamonaviy ta'lim tizimining muvaffaqiyati, avvalo, uning bosh ijrochilari – o'qituvchilarning kasbiy salohiyatiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchidan faqat bilim berish emas, balki shaxsiy namuna bo'lish, yangiliklarni o'zlashtirish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va ularning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kutiladi. Shu sababli, o'qituvchi salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirish, uni yangilab borish va zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb vazifadir.

Pedagogik salohiyatni rivojlantirish – bu uzluksiz kasbiy o'sish jarayoni bo'lib, u o'qituvchining bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarini yanada mustahkamlashni taqozo etadi. Quyida bu jarayonda samarali bo'lgan asosiy yo'nalishlar keltirilgan:

Kasbiy rivojlanishning eng muhim shartlaridan biri – bu muntazam malaka oshirish kurslarida ishtirok etishdir. Yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy yo'nalishlar o'qituvchining kasbiy salohiyatini yangilab boradi. Malaka oshirish faqatgina nazariy bilim olish emas, balki amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, yangi dars ishlanmalarni yaratish va sinovdan o'tkazish imkoniyatini ham beradi. Shu bilan birga, onlayn kurslar, vebinarlar, MOOC platformalari (Coursera, EdX, Udemy) orqali mustaqil o'rganish imkoniyatlari ham kengaymoqda.

O'zaro tajriba almashish – bu o'qituvchilar o'rtasida pedagogik hamkorlikni rivojlantiruvchi muhim vositadir. Ilg'or tajribalarni o'rganish, mahalliy va xalqaro darajadagi konferensiyalar, seminarlar, ustoz-shogird tizimi orqali tajriba almashinuvi o'qituvchining qarashlarini kengaytiradi, yangiliklarga ochiqligini oshiradi va amaliyotga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Shuningdek, maktablararo yoki hududlararo metodik hamkorliklar o'qituvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi uchun muhim poydevor yaratadi.

Ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanish o'qituvchining kasbiy chuqurlashuviga, fanga yangicha qarash bilan yondashishiga xizmat qiladi. Pedagogik innovatsiyalar, metodik tajribalar, darsdan tashqari loyihalar ustida ishlash, maqola va tezislarni yozish, grantlarda ishtirok etish – bularning barchasi o'qituvchining ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. O'z navbatida, bu jarayon o'quvchilarga ham motivatsion ta'sir o'tkazadi, ularni ilmiy faoliyatga jalb etishga yo'l ochadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali qo'llay olish – bugungi o'qituvchining ajralmas kompetensiyasidir. Raqamli savodxonlik deganda nafaqat kompyuter va internetdan foydalanish, balki onlayn darslarni tashkil etish, interaktiv platformalarda materiallar tayyorlash, raqamli baholash vositalarini qo'llash, sun'iy intellektdan ma'lumot tahlil qilishda foydalanish kabi ko'nikmalar tushuniladi. Shuningdek, o'quvchilarning raqamli xavfsizligini ta'minlash borasidagi mas'uliyat ham o'qituvchi zimmasidadir.

1-jadval

O'qituvchi salohiyatining tarkibi va rivojlantirish yo'llari

№	Salohiyat tarkibiy qismi	Ta'rif	Rivojlantirish yo'li
1.	Kasbiy bilim va ko'nikmalar	Fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, pedagogik metodlarni bilish	Malaka oshirish kurslari, fanni chuqur o'rganish, ilmiy izlanishlar
2.	Metodik mahorat	Darsni rejalashtirish, interfaol metodlarni qo'llash, baholash	Seminarlar, ochiq darslar, metodik almashinuv
3.	Kommunikativ kompetensiya	O'quvchi, ota-ona va jamiyat bilan samarali muloqot	Treninglar, psixologik mashg'ulotlar, jamoaviy ish usullari
4.	Psixologik-pedagogik tayyorgarlik	Yosh xususiyatlarini tushunish, individual yondashuv	Psixologiya bo'yicha kurslar, amaliy treninglar
5.	Innovatsion ochiqlik va refleksiya	Yangiliklarga ochiqlik, o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati	Raqamli texnologiyalardan foydalanish, mustaqil baholash, portfoliolar
6.	Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Ilmiy izlanish olib borish, tajriba almashish	Ilmiy maqola va tezis yozish, grantlarda ishtirok
7.	Raqamli savodxonlik	AKT vositalarini bilish va qo'llay olish	Onlayn platformalar, raqamli laboratoriyalar, IT bo'yicha treninglar

Xulosa. Pedagogik salohiyat – bu zamonaviy ta'lim jarayonining poydevori bo'lib, o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati, ta'lim sifati va o'quvchining har tomonlama rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik salohiyat tushunchasi kengayib bormoqda – u faqat bilim va metodik ko'nikmalar bilan cheklanmay, balki pedagogik madaniyat, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, moslashuvchanlik, kreativlik va innovatsion fikrlash kabi qator ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy o'qituvchi – bu yangiliklarga ochiq, o'z ustida doimiy ishlovchi, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan yondasha oladigan, jamoa bilan ishlashga layoqatli va ijtimoiy mas'uliyatni his qiluvchi shaxsdir. U nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, jamiyatda faol pozitsiyaga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanishi kerak.

Shu sababli, ta'lim tizimini isloh qilish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda o'qituvchilar salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Davlat siyosati darajasida malaka oshirish tizimini takomillashtirish, innovatsion va axborot texnologiyalarini o'qituvchilar faoliyatiga tatbiq etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek, o'zini o'zi baholash va refleksiyaning tizimlashtirish kabi choralar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning kasbiy o'sishini rag'batlantiruvchi muhit yaratish – ularni ijodiy va ilmiy izlanishga jalb etish, tajriba almashinuvi uchun imkoniyatlar yaratish, ustozlik maktablarini shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali pedagogik salohiyatni yanada mustahkamlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi salohiyatini rivojlantirish – bu faqat bir shaxsning o'sishi emas, balki butun ta'lim tizimining barqarorligi, ta'lim sifati va jamiyatning intellektual salohiyatining yuksalishi yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Shunday ekan, pedagogik salohiyatni oshirish bo'yicha tizimli, strategik va barqaror chora-tadbirlarni amalga oshirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduqodirov A.A., Nishonov F.N. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020.
2. Hasanboyeva S. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
3. Qodirova M. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2021.
4. Abduraxmonova Z.Yu. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
5. Sayfiyev N.H. Ta'lim tizimidagi islohotlar va o'qituvchining roli // O'zbek pedagogik jurnali. – 2022, №3. – B. 45–52.
6. UNESCO. Teachers of the 21st Century: Status, Roles and Competencies. – Paris: UNESCO Publishing, 2019.
7. Darling-Hammond, L. The Right to Learn: A Blueprint for Creating Schools That Work. – San Francisco: Jossey-Bass, 2001.
8. Shulman, L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher, 1986, Vol. 15(2), pp. 4–14.
9. OECD. Teachers and Leaders in Vocational Education and Training. – OECD Publishing, 2021.
10. Axmedova R. Raqamli pedagogika: O'qituvchi salohiyati va AKT imkoniyatlari // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2023, №1. – B. 23–29.